

NOMODDIY MADANIY MEROSNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

Akbarov Alisher Yusufjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining yordamchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10654286>

Annotatsiya

Bizning xalqimizga xos bo'lgan milliy merosning dunyo ahamiyatiga ega muhim qismi fan, madaniyat, falsafa, texnika, texnologiya va boshqa sohalar bilan bog'liqdir. Ushbu maqola yuqorida nomlari keltirilgan sohalar orqali nomoddiy madaniy merosni rivojlantirish, uni asrab-avaylash yo'lida inson faoliyati va uning asosiy o'rni haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: nomoddiy madaniy meros, xalq og'zaki ijodi, urf-odat, texnologiya, ijtimoiy hayot, milliy bayramlar.

Nomoddiy madaniy meros tushunchasi - tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), o'ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko'nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi.

“Ijtimoiy-madaniy faoliyat” va “nomoddiy madaniy meros” iboralari iste'molga kirib kelganiga uzoq vaqt bo'lgani yo'q. “Ijtimoiy-madaniy faoliyat” iborasi o'z davrida juda keng qo'llanilgan “madaniy-oqartuv ishlari” iborasining o'mini to'ldirish maqsadida qo'llanila boshlagan bo'lsa, “madaniy-oqartuv ishlari” iborasi o'mida yana bir ibora — “madaniy-ma'rifiy ishlar” ham qo'llanilmoqda.

“Nomoddiy madaniy meros” iborasi, yuqorida qayd etganimizdek, yaqin kunlarda kirib kelgan bo'lsa-da, biz an'anaviy ravishda “xalq ijodiyoti”, “folklor” ibora va so'zlari bilan ifodalab kelgan milliy merosimizni saqlash, uni kelgusi avlodga yetkazish, undan yoshlar tarbiyasida unumli foydalanish masalalariga mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq katta e'tibor berila boshlangan edi.

Dastlab viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan folklor-etnografik jamoalar va qadimiy musiqa cholg'ulari ijrochilarining Toshkent shahrida o'tkazilgan Navro'z va Mustaqillik umumxalq bayramlariga bag'ishlangan tadbirlarga jalb etilib, ularga mamlakatimizning eng katta sahnasidan joy berilishi bilan boshlangan ishlar izchil davom ettirilib, xalq ijodini o'rganish, havaskorlik san'atini rivojlantirish masalalari maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab ta'limning barcha bosqichlariga joriy etildi. Buning natijasida yurtimizning nafaqat har bir tuman va shahari, balki deyarli barcha bo'g'in ta'lim muassasalarida havaskor folklor jamoalari shakllandi: Hozirgi kunda oliy ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Xazina”, “Meros”, “Barhayot an'analar” ko'rik-tanlovlarining an'anaviy ravishda tashkil etilayotganligi buning isbotidir.

Tarixda va zamonaviy ilm-fanda milliy-madaniy meros tushunchasi, uning ma'naviy makondagi o'rni masalasi ko'plab, Sharq va G'arb allomalarining asarlarida asosiy bahs mavzusi bo'lib kelgan. Jumladan, Sharq allomalaridan Abu Nasr Forobiy o'zining “Fozil odamlar shahri” asarida, Ibn Sino “Tadbirul manzil”, Abu Rayhon Beruniy esa “O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi asarlarida ushbu masalaga alohida ahamiyat qaratganlar. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston strategiyasi” nomli kitobida ham milliy-madaniy meros tushunchasi, uning jamiyat taraqqiyotidagi, yangi ma'naviy makonni yaratish borasidagi ahamiyati borasida dolzarb masalalar ilgari surilgan.

Har bir xalqning ko'p yillik tarixiy tadrijiyligi mahsuli milliy merosda namoyon bo'ladi. Milliylik aks etmagan har qanday milliy merosning yashovchanligi uzoq davom etmaydi. Boz ustiga har qanday milliy meros millat kelajagini belgilovchi g'oyaviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, milliy meros quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1. milliy urf-odatlar, an'ana, marosim, qadriyatlar;
2. dunyoqarash;
3. turli rasm-rusumlar;

4. dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan kashfiyotlar;
5. millatdan yetishib chiqqan allomalar va ular yaratgan asarlar;
6. davlatchilik;
7. milliy-madaniy boyliklar, tarixiy yodgorliklar.

Ularning har biri millat vakillari sa'y-harakatlari bilan asrlar davomida shakllantiriladi va keyingi avlodga meros sifatida qoldiriladi.

Xalqqa xos bo'lgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar millat hayotining muayyan davrida uning kundalik turmushida yuzaga keladi. Ular avloddan avlodga o'tib, kundalik hayotda takrorlanib, millat vakillarining xatti-harakatlari, xulq-atvori va ko'nikmalarida o'z ifodasini topadi. Milliy an'analar millatning ko'p asrlik hayotida yuz beradigan turli tabiiy va ijtimoiy jarayonlar, etnoslarning ijtimoiyma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy-ijodiy faoliyati negizida atrof-muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog'liq holda avloddan avlodga o'tib, taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar tafakkuri, orzu-o'ylari, tajribalari, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy-madaniy merosga aylanadi.

Urf-odatlar va an'analarning uzoq muddat davomida nisbatan saqlanuvchanligi va ayni paytda, kundalik turmush hayotida takrorlanuvchanligi milliy merosning tarkibiy qismi bo'lishini ta'minlaydi. Ularning nisbatan uzoq vaqt amal qilishi, kundalik turmush va hayotda ko'p ishtirok qilishi millat birligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular orqali millat vakillari o'zaro ma'naviy yaqinlashib boradi hamda boshqa millatlarga xos bo'lmagan, faqat o'zlariga xos bo'lgan, o'z zamoniga mos keladigan yangi-yangi urf-odatlar va an'analarni shakllantirib boradi. Milliy qadriyatlar millat ehtiyoji, manfaatlari, maqsadlariga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy ne'matlar majmuasini tashkil qiladi va milliy merosning tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy merosda millatga xos bo'lgan rasm-rusumlar ham muhim o'rin egallab, ular millat tarbiyasining ma'lum tizimida aniq urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan muayyan, ramziy, mas'uliyatli harakat hisoblanadi. Rasmrusumlar millat fe'l-atvorining aniq maqsadini ko'zlovchi normalarni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Ularning xarakterli xususiyati shundaki, u aniq maqsadni amalga oshirish tomon qilinadigan harakat bo'lib, urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar kabi shakllangan emas, balki shakllantirishga qaratilgan amaliy harakatlar majmuasini tashkil qiladi.

Bizning xalqimizga xos bo'lgan milliy merosning dunyo ahamiyatiga ega muhim qismi fan, madaniyat, falsafa, texnika, texnologiya va boshqa sohalarida amalga oshirilgan kashfiyotlar, g'oyalar, asarlar, yuksak intellektual ma'naviy salohiyat sohiblari bo'lgan Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek kabi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan. Bu kashfiyotlar, eng avvalo, o'zbek xalqining milliy merosidir.

Dunyoga mashhur Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlar, ularda mujassam bo'lgan tarixiy obidalar, yodgorliklar, milliy hunarmandchilik, shaharsozlik, kiyim-kechak namunalari va hokazolar shular jumlasidandir. Shunga ko'ra, milliy meros millat tarixi salohiyati, kuch-qudrati va ayniqsa, kelajagining o'zga millatlar va jahon xalqlari ko'zgusida aks ettiruvchi asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, o'zbek xalqining milliy-madaniy merosi o'z ichiga ona Vatanimizning ko'p yillik buyuk tarixiy o'tmishi, Sharq ma'rifatparvarligi, buyuk ajdodlarimizning jahon madaniyati va sivilizasiyasiga qo'shgan beqiyos hissasi va unda tutgan mavqei, vatandoshlarimiz, buyuk ajdodlarimizning madaniyat, fan, din, adabiyot, san'at sohasida erishgan yutuqlarining jahonshumul ahamiyati, diyorimizdagi madaniyat, san'at, me'morchilik, fan va huquq sohasidagi bebaho yodgorliklar, o'zbek milliy urf-odatlari, an'analari, udumlari va boshqalarni qamrab oladi hamda biz uni o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra juda keng qamrovga ega tushuncha sifatida anglamog'imiz lozim.

Bu borada inson omili muhim ahamiyatga egadir. Albatta nomoddiy madaniyatimizni kelgusi avlodlarga qay tariqa yetkazilishi, uning hozirgi jamiyatdagi o'rni, rivojlanishi, o'sishi bu jamiyatdagi insonlar qo'lidadir. Nomoddiy madaniy meroslarimiz qadriga yetaylik!

References:

1. Nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilim va ko'nikmalarini ijtimoiygumanitar fanlar negiziga singdirish\\Uslubiy qo'llanma\\ T.: "NAVRO'Z" nashriyoti 2015. – 64 b.
2. Nomoddiy madaniy meros va folklore ijro san'ati an'analari\\ navro'z nashriyoti.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – B. 464.
4. Otamuratov S. Globallashuv: Millatni asrash mas'uliyati (siyosiy-falsafiy qirralar). – Toshkent: O'zbekiston, 2018.– 352 b.
5. Tashpulatova, D., & Siddiqova, I. (2021, April). A CRITIQUE OF THE VIEW OF ANTONYMY AS A RELATION BETWEEN WORD FORMS. In Конференции.
6. Тошпулатова, Д. Х. (2019). ПОНЯТИЕ И ВИДЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ. АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ. Вопросы педагогики, (7-2), 118-121.
7. Tashpulatova, D. K. K., & Jiyeenbayeva, B. (2023). THE IMPACT OF LEARNING A LANGUAGE ON THE BRAIN FUNCTION. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 310-314.
8. ТАШПУЛАТОВА, Д. PRAGMATIC APHORISMS IN UZBEK AND ENGLISH FEATURE AND THE PRINCIPLES OF THEIR TRANSMISSION IN THE CORPUS. СООТНОШЕНИЕ ПАРАЛИНГВИСТИКИ И РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В РАЗНЫХ ЛИНГВОКУЛЬТУРАХ.
9. Zakirova, Z. (2023). O'ZBEK MILLIY MUSIQASINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIY ETISH BOSQICHLARI. Interpretation and Researches, 2(1)
10. Azamovna, Z. Z. (2022). From the History of Uzbek National Musical Art. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 297-301.
11. Azamovna, Z. Z. (2022). Theoretical Foundations of the Formation of Music History. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 302-306.
12. Zakirova, Z. A. . (2022). Methods of Using Musical Means in Teaching the History of the Vienna Classical School in the General Educational Process. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 95–99.